

Temirov Odil Shukurovich

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/company/management/chairman>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi

Tug'ilgan sana va joy: 1977-yil, Samarqand viloyati

Ma'lumot: oliy, Toshkent kimyo-texnologiya instituti (1999 y, bakalavr), Toshkent kimyo-texnologiya instituti (2005 y, magistratura).

Telefon: (998 71) 140 74 08

Elektron pochta: info@uks.uz

Mehnat faoliyati

2024-y. - h.v.	"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi
2023-2024 yy.	"O'zbekneftgaz" AJ boshqaruv raisining qayta ishlash bo'yicha o'rinbosari
2020-2023 yy.	"O'zkimyosanoat" boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va axborot texnologiyalari bo'yicha birinchi o'rinbosari — "Navoiyazot" AJ Boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi
2019-2020 yy.	"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi
2018-2019 yy.	"O'zbekneftegaz" AJ boshqaruvi raisining chuqur qayta ishlash bo'yicha o'rinbosari
2014-2017 yy.	"Sho'rtan gaz kimyo majmuasi" unitar sho'ba korxonasi direktori
2012-2014 yy.	"O'zbekiston GTL" qo'shma korxonasi texnik menejjeri o'rinbosari
2000-2012 yy.	"Sho'rtan gaz kimyo majmuasi" unitar sho'ba korxonasi polietilen ishlab chiqarish sexi smena-muhandisi, Texnologiya bo'limi muxandis-texnolog, bosh texnolog o'rinbosari, Taraqqiyot xizmati boshlig'i
1999-2000 yy.	"Sho'rtangaz" neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi kondensatni barqarorlashtirish sexi quzaturvchisi
1995-1999 yy.	Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabasi

Funksional vazifalari

- "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi, uning tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- kimyo sanoatini modernizatsiyalashga, texnik qayta jihozlashga, resurslar tejovchi samarali texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga qaratilgan yagona texnik siyosatini olib boradi;
- kimyo sanoatining barqaror rivojlanishiga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishiga, uning eksport salohiyatini, shu jumladan, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish hisobiga kegaytirishga qaratilgan tarmoqning uzoq va o'rta muddatli taraqqiyot dasturlari bajarilishini ta'minlaydi;

- zamonaviy menejmentning usullarini egallab olgan hamda bozor sharoitida samarali ishlashga qodir bo'lgan texnik-muhandis va boshqaruv kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash ishlarini boshqaradi;
- marketing tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo'jaligining mineral o'g'itlarga, o'simliklarni himoya qiluvchi kimyo vositalariga bo'lgan hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining raqobatbardosh kimyo mahsulotlariga joriy va bo'lajak ehtiyojlarini aniqlaydi;
- aksiyadorlik jamiyatning tarkibiy bo'linmalarida direktiv hujjatlar ijrosi ustidan doimiy nazorat olib boradi;
- aksiyador jamiyatga taalluqli barcha masalalar yuzasidan davlat va mahalliy boshqaruv organlar bilan hamkorlik qiladi;
- aksiyador jamiyati apparati, uning tarkibidagi korxona va tashkilotlar uchun rahbar kadrlarni tayyorlash, tanlash va tayinlash ishlarini boshqaradi.

Fuqarolarni shaxsiy masalalar bo'yicha qabul qilish kunlari: seshanba, 09.00—11.00